


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 **2024**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2



TOSHKENT-2024

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor

Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi  
Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun  
Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sul-tonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)  
Ma'mun Universiteti NTM

**FILOLOGIYA**

<b>1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	8
<b>2. Murodov G‘ayrat Nekovich</b> EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIY BOG‘LANISHLAR.....	13
<b>3. Чупонов Отаназар Отажонович</b> РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК.....	20
<b>4. Худайбергенова Умида Комилджановна</b> СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ.....	26
<b>5. Pardayeva Sojida Ahmatovna</b> WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.....	34
<b>6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна</b> МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ.....	39
<b>7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna</b> SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE.....	45
<b>8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna</b> INSON TANA A‘ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	51
<b>9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна</b> СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ.....	58
<b>10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	64
<b>11. Абдиева Камола Аслидин кизи</b> ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА.....	70

**IQTISODIYOT**

<b>1. Xaydarov Ixom To‘xtayevich</b> SUG‘URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI.....	76
<b>2. Кипкеева Асият Магомедовна</b> ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ.....	81
<b>3. Annazarova Barno Rustamovna</b> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO‘YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI.....	86

## PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA

- 1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**  
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА  
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....92
- 2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**  
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI  
NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....97
- 3. Kalandarova Madina Bahadirovna**  
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO‘LLASH....105
- 4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишников Дина Рафаиловна**  
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ  
ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ  
РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....111
- 5. Jumaniyazova Imira Kamiljanovna**  
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY  
VA AMALIY TAHLILI.....117
- 6. Sadikova Umida Botirovna**  
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....123
- 7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ  
ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО  
МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ.....128
- 8. Kasimova Xulkar Atabayevna**  
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI  
BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.....132
- 9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**  
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ.....138
- 10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**  
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK  
STRESSNING NAMOYON BO‘LISHI.....144
- 11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**  
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO‘RIQISHNI NAMOYON BO‘LISHI VA UNI  
KORREKSIYASI.....149
- 12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**  
GENDER IJTIMOIVLASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING  
O‘ZIGA XOSLIGI.....155

## TIBBIYOT


- 1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**  
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS  
OF THE KHOREZM REGION.....161
- 2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**  
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ  
ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА.....166

## TARIX

- 1. Mustafa Demirci**  
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNIDS PALACE: ‘ABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL  
MASĪNĪ, THE TEACHER OF IBN SĪNA AND BĪRUNĪ, AND HIS UNDISCOVERED  
SCIENTIFIC HERITAGE.....172
- 2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**  
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И  
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ.....184
- 3. Лухманова Зарина Талибовна**  
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА.....191
- 4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**  
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY  
QADRIYATLAR SIMBIOZI.....209
- 5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**  
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI  
TARAQQIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....215
- 6. Masharipova Gularam Kamilovna**  
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDIFI  
NUSXALARI HAQIDA.....220
- 7. Ғайбулла Бобоёрв Боллиевич, Шоҳрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**  
АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ  
БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?.....231
- 8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhridin**  
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID  
BA’ZI MASALALAR.....236
- 9. Egamberdieva Nigora Azadovna**  
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY  
ILDIZLARI.....242
- 10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**  
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”  
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ  
СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....249

**Matkarimova Sadokat Maksudovna,**  
Ma'mun universiteti Tarix kafedrası mudiri,  
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent Xiva, O'zbekiston  
E-mail.: sadoqatmaksudovna1982@gmail.com

## XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI TARAQQIYOTIDAGI O'ZGARISHLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515757>

### ANNOTATSIYA

Maqolada etnologiyadagi taomlanish, taom iste'mol qilish tushunchasi ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslik, etnik an'ana, xalqlar moddiy madaniyatining eng asosiy tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan. Shu bilan birga, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida taomlanish madaniyati taraqqiyotidagi o'zgarishlar masalasi ochib berilgan. Hozirgi kunda sohaga oid mutaxassislar va tadqiqotchilarni ovqat tayyorlash texnologiyasi yoki uning ozuqaviy qiymati bilan birga taomlarning odamlar o'rtasidagi munosabat va ijtimoiy hayotiga, psixikasiga ta'siri masalalari taxlil qilingan. Maqolada dunyo xalqlarining oziq-ovqat mahsulotlari, taomlarni afzal ko'rish an'analari yoki aksincha, ovqat cheklovi va ta'qiqlar, taomlarni tashkil qilish shakllari, uni tayyorlash bilan bog'liq an'ana va marosimlar muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** taomlanish madaniyati, sog'lom va to'g'ri ovqatlanish, etiket va asriy an'analalar, dasturxon, oshxona idishlari, transformatsiya, oziq-ovqat ehtiyojlari, qo'shimcha komponentlar, ekologik sharoit va iqlim, tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar.

---

**Matkarimova Sadokat Maksudovna,**  
Head of the Department of History at Mamun University,  
Doctor of Historical Sciences (DSc), Associate Professor  
Khiva, Uzbekistan  
E-mail.: sadoqatmaksudovna1982@gmail.com

## CHANGES IN FOOD CULTURE DEVELOPMENT AT THE END OF THE XX - BEGINNING OF THE XXI CENTURY

### ABSTRACT

The article explores the concept of food intake, food consumption in ethnology as the main component of sociocultural identity, ethnic tradition, and material culture of peoples. At the same time, the question of changes in the development of food culture at the end of the twentieth and beginning of the 21st centuries is revealed. Currently, industry experts and researchers are analyzing issues of cooking technology or its nutritional value, as well as relationships between people and the impact of food on social life and the psyche. The article discusses food products of



the peoples of the world, traditions of food preferences or vice versa, food restrictions and prohibitions, forms of food organization, traditions and rituals associated with its preparation.

**Keywords:** food culture, healthy and proper nutrition, etiquette and age-old traditions, dishes, kitchen utensils, transformation, food needs, additional components, environmental conditions and climate, natural, socio-economic conditions.

**Маткаримова Садокат Максудовна,**  
заведующий кафедрой истории Университета Мамуна,  
доктор исторических наук (DSc), доцент  
Хива, Узбекистан  
E-mail.: sadoqatmaksudovna1982@gmail.com

## ИЗМЕНЕНИЯ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ПИТАНИЯ В КОНЦЕ XX - НАЧАЛЕ XXI ВЕКА

### АННОТАЦИЯ

В статье исследуется понятие приема пищи, употребления пищи в этнологии как основной компонент социокультурной идентичности, этнической традиции, материальной культуры народов. При этом раскрыт вопрос об изменениях в развитии культуры питания в конце XX и начале XXI века. В настоящее время специалисты и исследователи отрасли анализируют вопросы технологии приготовления пищи или ее пищевой ценности, а также взаимоотношений между людьми и влияния еды на социальную жизнь и психику. В статье рассматриваются продукты питания народов мира, традиции пищевого предпочтения или наоборот, пищевые ограничения и запреты, формы организации питания, традиции и ритуалы, связанные с его приготовлением.

**Ключевые слова:** культура питания, здоровое и правильное питание, этикет и вековые традиции, посуда, кухонная утварь, трансформация, потребности в пище, дополнительные компоненты, экологические условия и климат, природно-социально-экономические условия.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Insoniyat o'z taraqqiyotining yuqori pog'onasiga ko'tarilgani sari, moddiy madaniyat masalasini o'rganish yanada dolzarb tus olmoqda. Bugungi kunda turli xalqlarning ovqatlanish madaniyati va an'alarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish etnologiya, ijtimoiy antropologiya va etnopsixologiya fanlarining eng muhim masalalaridan biri hisoblanmoqda. Ushbu fanlarning taraqqiyoti – insonlarning ovqatlanish an'analari yoki madaniyati bo'yicha xilma-xil qarashlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli bo'yicha yangi nazariy-metodologik yondashuvlarning yuzaga kelishiga olib keldi.

Etnologiyada *taomlanish, taom iste'mol qilish* tushunchasi ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslik, etnik an'ana, xalqlar moddiy madaniyatining eng asosiy tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinadi. Ovqatlanish madaniyati asrlar davomida shakllanib, har bir xalq hayotining tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liqlikda, milliy an'analarni o'zida mujassam etgan holda taraqqiy qiladi. Qolaversa, aynan ovqatlanish madaniyatida xalqlarning milliy o'ziga xosligi ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda sohaga oid mutaxassislar va tadqiqotchilarni ovqat tayyorlash texnologiyasi yoki uning ozuqaviy qiymati bilan birga taomlarning odamlar o'rtasidagi munosabat va ijtimoiy hayotiga, psixikasiga ta'siri masalalari ko'proq qiziqtiradi. Shuningdek, kishilarning nima yeyishi va qanday ovqatlanishi emas, balki dasturxon atrofida qanday o'tirish, qaysi idishlarda ovqatlanishni, taomning inson ruhiyati va jismiga ta'siri masalasini o'rganish muhim hisoblanadi.

Har qanday taom xoh oilaviy tushlik bo'lsin, xoh marosimiy yoki sayyohatchilarning tushliklari bo'lsin jarayon shunchaki qorin to'yg'azish emas. Yoki bo'lmasa bu jarayon ramziy mazmunga ega bo'lgan harakat – bu ma'lum bir etnik guruh uchun an'anaviy bo'lgan axloqiy va estetik xulq-atvor me'yorlarini qabul qiladi hamda qaysi madaniy jamoaga mansubligini ham

ko'rsatadi. Taom uchun asosiy mahsulotlar, idish turlari, ba'zi qo'shimcha komponentlarning mavjudligi (ziravorlar, oshko'klar), ovqatni qayta ishlash, tayyorlash, oziq-ovqat cheklovlari va preferensiya(afzallik)lar, ovqatni iste'mol qilish bilan bog'liq xatti-harakatlar qoidalari hamda birgalikda ovqatlanish tizimini tashkil qiladi. Shu tufayli, azaldan oziq-ovqat bilan bog'liq u yoki bu hodisalarni tarixiy, madaniy va psixologik, tibbiy jihatdan nazariy o'rganish dolzarbdir.

Oziq-ovqat mahsulotlarini moddiy madaniyat hodisasi sifatida ma'lum mintqa misolida o'rganish, an'anaviy madaniyat elementlarining umumiy geografiyasini tadqiq etish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Shu o'rinda, an'anaviy taomlar va ovqatlanish madaniyatining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda rivojlanishiga *tarixiy, etnik, diniy, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy* omillar ta'sir qilganligini aytib o'tish joiz.

Dunyo xalqlarining oziq-ovqat mahsulotlari, taomlarni afzal ko'rish an'analari yoki aksincha, ovqat cheklovi va ta'qiqlar, taomlarni tashkil qilish shakllari, uni tayyorlash bilan bog'liq an'ana va marosimlarni *etnik va diniy omillarning* chambarchasligida ko'rish mumkin. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarining etnik o'ziga xosligi moddiy madaniyatning boshqa sohalari, kiyim-kechak va turar-joylarga qaraganda ancha barqaror hamda uzoq vaqt saqlanib qolishi diniy-etnik xususiyatlarga ko'ra xarakterlidir.

Xorazm vohasi aholisi hayotida ovqatlanish bilan bog'liq o'ziga xos etiket va asriy an'analar mavjudki, ularning shakllanishi hamda taraqqiy qilishida albatta etnik va diniy omillar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, o'rganilayotgan tadqiqotda *iste'moldagi taomning halol bo'lishi, taomdan oldin ham keyin ham qo'l yuvdirilishi, taomni o'ng qo'l bilan iste'mol qilish, taom ustida janjallashmaslik* va boshqa jihatlar tahlilga tortilgan.

Taomlanish madaniyati taraqqiyotidagi keyingi o'zgarishlar *ijtimoiy-iqtisodiy omillar* natijasida yuzaga keladi va uning transformatsiyasiga ta'sir etadi. Ayniqsa, Xorazm vohasi hududida yangi etnik guruhlarining (slavyan xalqlari, Kavkazliklar, Volgabo'yi va Ural atroflari xalqlari) kelib o'rinishi, chet davlatlar bilan olib borilgan o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarning yanada rivojlanganligi bois turli eron va afg'on shirinliklari, yevropa xalqlariga (rus, nemis va fransuz) xos bo'lgan ekin va sabzavot turlarining kirib kelishi va buning natijasida voha taomnomasida o'zgarishlar yuz bergan.

Hozirda Xorazm vohasi an'anaviy oshxonasiga turli xil ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida transformatsion jarayonlar vujudga kelgan va buning natijasida kundalik oilaviy ovqatlanishda ham iste'moldagi taomlar tanlovi qadimdagidek sharoit va imkoniyatga bog'liq emas, balki oila a'zolarining xohish va istaklariga asoslanilmoqda. Shu bilan birga, *bulomiq, atala, ijjon, juyan kurdik, g'ulpa so'msa, olapo'ta go'mma, paqlama, qushtili* kabi taom va shirinliklar, ularning an'anaviy tayyorlanish uslublarining unutilib, yo'qolib borayotgan bo'lsa, *yumurta barak, shivit oshi* kabi taomlarni pishirish asosan aziz mehmonlar sharafiga yoki ko'proq xorijiy sayyohlar uchun tayyorlanmoqda.

## **METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.**

Antropolog va etnograflarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy oziq-ovqat turli xalqlarning hayoti, yashash tarzi va madaniyatining o'ziga xos hamda konservativ qismidir. Bu otobobolarining etnik hududida yashovchi xalqlarga, shuningdek, majburan yoki ixtiyoriy ravishda ko'chib ketgan va boshqa etnik muhitda yashaydigan xalqlarga ham tegishlidir.

Oziq-ovqat turlari, uni tayyorlash usullari va oziq-ovqat rejimi doimiy madaniy va kundalik an'analardan biri sanaladi. Yangi muhitda yashayotgan muhojirlar kiyimlari, tillarini tez o'zgartirishlari mumkin, lekin ovqatlanish tartibi va an'analarni qat'iy saqlaydilar. Buni xorijiy va mahalliy tadqiqotlar ishonchli tarzda isbotlaydi. Masalan, hozir Buyuk Britaniyada yashovchi hindistonlik muhojirlar iloji boricha o'z uylaridagidek ovqatlanishni davom ettiradilar. Shuningdek, arman, yahudiy va rus diasporalarida ham an'anaviy ovqatlanish odatlari saqlanib qolingan. Hatto, Duxoborlar ham Javaxetiyada (Gruziya) o'zlari kelgan Rossiyaning markaziy sharoitiga qaraganda o'ta g'ayrioddiy va og'ir sharoitda bo'lgan va iqtisodiy yo'nalishini keskin o'zgartirishga majbur bo'lganlar ham, odatda, o'ziga xos mahsulotlar to'plamini (idishlar) saqlab qolishgan[1].

Xorazm vohasi aholisining an'anaviy taomlari va ovqatlanish madaniyati, ayniqsa, uzoqda ham sezilarli darajada saqlanganligini kuzatish mumkin. Jumladan, turli yoshdagi xorijga ko'chib ketgan yoki bir muddat yashash maqsadida (o'qish, ishlash) boshqa davlatlarda yashayotgan vatandoshlarimiz bu haqida keng ma'lumot beradilar. Axborotchilarning ta'kidlashlaricha, *cho'rak, yupqa non, quritilgan meva va sabzavot qoqilari, sumalak va an'anaviy shirinliklar*, go'shtdan tayyorlangan *qatti qovurdoqni* Xorazmdan olib turishlarini ma'lum qildilar[2]. Shuningdek, Xorazmning *qizil burch qo'shilgan kadi so'msasi, shivit oshi, etlipatir, qizil patir, tuxum barak, kadi barak, qovurdoq, qorin qovurdoq, zigirik palov* kabi taomlarini o'sha yurtlarda tez-tez tayyorlab iste'mol qilishlarini aytib o'tdilar. Bu taomlarning ko'p qismi xorijliklar tomonidan ham yaxshi qabul qilinib, hattoki buyurtma berib tayyorlatishlari ham ma'lum bo'ldi[3].

Uzoq yillar davomida tadqiqotchilar dunyoning turli mintaqalari uchun FAO\*/VOZ\* tomonidan ishlab chiqilgan, optimal ovqatlanishning yagona me'yor va standartlarni qo'llash imkoniyati haqidagi masalani muhokama qilishdi. Chunki, an'anaviy tabiiy ovqatdan oziq-ovqat qo'shimchalari va konservantlarga ega taomga o'tish sog'likka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, g'arbning rivojlangan mamlakatlari aholisining oziq-ovqat ehtiyojlarini qondiradigan standartlari, kundalik hayotida an'anaviy ovqatlanish odatlari saqlanib qolgan, rivojlanmagan mamlakatlar aholisining ehtiyojlarini qondira olmaydi. Umuman olganda, oziq-ovqat "konservatizmi", asosan, an'anaviy taomlarning ekologik sharoit, iqlim va etnik guruhning biokimyoviy jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlariga mos kelishi bilan izohlanadi.

### TADQIQOT NATIJALARI.

Mashhur sovet etnografi S.A.Tokarev "... inson jamiyatida ovqatlanishning vazifalari juda turli-tumandir. Ovqat va ichimlik barcha organik olamga xos bo'lgani (hayvonot va o'simliklarning oziqlanishi) kabi insonga ham faqat qorin to'ydirish, ya'ni, uning ozuqaga bo'lgan biologik ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan ehtiyojlardan biri emas. Ovqat bu insonlarning ijtimoiy muloqoti uchun zarur bo'lgan vosita", deb ta'kidlagan[4].

Ovqatlanishning bunday vazifalari haqida turli xalqlarning madaniy an'alarini etnografik jihatdan tadqiq qilish natijalaridan ham bilish mumkin. S.A.Tokarev insonlarning birga ovqatlanish orqali o'zaro qardosh tutinish; dushman dasturxonida o'zaro ovqatlanish orqali – dushmanlikka chek qo'yib, tinchlikni tiklash; kuyov va kelinning ovqatlanishi esa nikoh marosimlarining eng ajralmas qismi ekanligini aytib o'tadi[5].

Etnograf Yu.N.Yefremova "...so'nggi paytlarda etnograflar o'z tadqiqotlarining ob'ekti sifatida tez-tez jahon xalqlarning an'anaviy taomlariga murojaat qila boshladilar. Va aynan ovqatlanish xalqlar moddiy hayotining eng kam o'zgarishga uchrovchi qismi bo'lib qolmoqda[6]" – deb ta'kidlaydi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlaridan jahon sotsiologiyasida ham ovqatlanishni ilmiy muammo sifatida o'rganishga juda katta e'tibor qaratila boshlandi. Olimlar ovqat iste'mol qilish, ovqatni insonning biologik, fizik va psixik jihatdan rivojlanishidagi ahamiyatidan o'zib ketib, tobora ijtimoiy zararli odatiga aylanib borayotganligini aniq tushunib yetdilar[7].

Amerikalik olim Ellen Richards esa ...zamonaviy odamlar ham aynan ibtidoiy odamlar yegan oziq-ovqatlar: hayvon go'shti, o'simliklar, mevalar bilan oziqlanadilar. Lekin, zamonaviy odamlar ibtidoiy odamlardan farqli ravishda, oziq-ovqatlarni do'konlar va bozorlardan sotib oladilar. Insoniyat tanlash imkoniyatiga ko'proq tayana borib, an'anaviy shakllangan, tabiiy sharoitga mos, foydali ovqatlanish an'alarini tobora unutib bormoqda, bu esa insoniyatning asrlar davomida shakllangan ovqatlanish an'alarining ijtimoiy-madaniy harakatlantiruvchi kuch bo'lishi kabi mohiyatining pasayib ketishiga olib kelmoqda. Buning natijasi esa, o'z-o'zidan zamonaviy insonning ovqatlanish menyusining buzilishiga hamda kun sayin bu menyusning zararli va noto'g'ri ovqatlar bilan to'lib borishiga olib kelmoqda. Bularning barchasidan kelib chiqib, E.Richards bugungi kunda magazin yoki bozorga kelgan har bir kishi qanday va qancha miqdorda oziq-ovqat

\*БМТнинг қишлоқ хўжали ва савдо билан шуғулланувчи ташкилоти – ФАО (Food and Agriculture Organization).

\*Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти – ВОЗ (Всемирная организация здравоохранения).

mahsulotlari o'zi hal qilishini, biroq mustaqil ravishda ovqatlanish tartibining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini, zararli yoki foydaliligini aniqlab bilmayligini ta'kidlaydi[8].

### XULOSALAR.

Ovqatlanish madaniyati borasida yuqoridagi fikrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Qolaversa, hozirgi fan-texnika jadal rivojlangan jamiyatda to'g'ri va sog'lom ovqatlanish masalasi yanada dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Zero, oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati va ovqat tayyorlash pishirish an'alariga yangi texnologiyalarning (genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar, sun'iy konservant va ozuqalar, fast-fud ovqatlar) jadal suratda kirib kelishi bu sohadagi bahs-munozaralarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Achinarlisi, mazkur "zamonaviy texnologiyalar" anoreksiya (Анорексия – бутунлай иштаханинг йўқолиб кетиши билан боғлиқ равишда ўта ориқлаб кетиш.), yurakning yog' bosishi, ortiqcha semirish kabi an'anaviy kasalliklardan tashqari, yangidan-yangi, ilgari ma'lum bo'lmagan "oziq-ovqat" kasalliklarini keltirib chiqarmoqda[9].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, XX asrning ikkinchi yarmidan to hozirgi kungacha ovqatlanish yangicha ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat yoki o'zgarishlar jahonning ko'pgina hududlarida ikkala jahon urushlari davri va undan keyingi yetar-yetmaslik davridan birdaniga oziq-ovqat to'kin-sochinligiga o'tilishi bilan bog'liq bo'lgan va bu o'z navbatida ovqatlanish an'anasi hamda madaniyatida o'z aksini topgan.

Ovqatlanishdagi bunday to'kin-sochinlik va ijtimoiy transformatsiya "yaxshi ovqatlanish" degan tushunchaning o'zgarishiga hamda sog'lom va to'g'ri ovqatlanish odatlarining buzilishiga olib keldi. Ikkinchidan, sharq sotsiologiyasidan farqli ravishda, g'arb sotsiologiyasi insonlarning kundalik turmush tarzini iker-chikirlarigacha shu darajada tadqiq qiladiki, keyingi paytlarda bu ovqatlanish sohasida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu esa, ijtimoiy fanlarda ham ovqatlanish sohasini o'rganishda taomlarning insonlar ijtimoiy turmushidagi o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### Iqtiboslar / References / Сноски

- 
- [1] Григулевич Н.И. Питание как важнейший механизм этноэкологической адаптации // Традиционная пища как выражение этнического самосознания. – М.: Наука, 2001. – С. 147.
- [2] Дала ёзувлари. Урганч шаҳри Тозабоғ Маҳалласи. 2020 йил.
- [3] Дала ёзувлари. Хива тумани Сангар маҳалласи. 2020 йил.
- [4] Токарев С.А. К методике этнографического изучения материальной культуры // Этнографическое обозрение. 1970. № 4. Режим доступа: [http://journal.iea.ras.ru/archive/1970s/1970/1970\\_4\\_Tokarev.pdf](http://journal.iea.ras.ru/archive/1970s/1970/1970_4_Tokarev.pdf). – С. 5.
- [5] Токарев С.А. К методике этнографического изучения материальной культуры... – С. 5.
- [6] Ефремова Ю.Н. Повседневные блюда в системе питания украинцев Западной Сибири (на примере Омской области). // Исторический архив Омской области. 2008. Режим доступа: <http://iaoo.ru/notes/114.html>.
- [7] Кравченко С.А. Становление сложного общества: к обоснованию гуманистической теории сложности. – М: МГИМОУниверситет, 2012. – С. 11-13.
- [8] Richards E. First Lessons in Food and Diet. Boston: Whitcomb & Barrows, 1904. Режим доступа: [http://archive.org/stream/first\\_lesson\\_sinf00richgoog/page/n5/mode/2up](http://archive.org/stream/first_lesson_sinf00richgoog/page/n5/mode/2up). – С. 19.
- [9] Носкова А.В. Питание: методологические подходы к исследованию и повседневные практики // Вестник МГИМО. – 2014. – №6 (39). – С. 210.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000